

***OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI
3-KURS TALABASI
FOFYROBA D.***

***PEDAGOGIKA FANIDAN
“TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING AQLIY
MEXNAT FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISHNING
NAZARIY ASOSLARI”
MAVZUSIDAGI***

Kurs ishi

Ilmiy rahbar:

A.Negmatova

Andijon 2014 yil

I. KIRISH

II. ASOSIY QISM

1 Ta'lim jarayonida o'quvchilarining aqliy mehnat faoliyatlarini tashkil etishda milliy tarbiyaning roli

2. O'quvchilarining aqliy mehnat va qobiliyatlarini rivojlanib borishining pedagogik-psixologik omillari

3 O'quvchilar aqliy mehnat faoliyatlarini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

III. XULOSA

FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Istiqbolga erishgan vatanimiz rivojlanib bormoqda. Xozirgi kungacha vatanimiz qaysi bir soxani olmaylik yuqori natijalarga yerishib rivojlanishning o'zbek modelini dunyo xamjamiyatiga ko'rsatib qo'ymoqda. Bu borada ta'lim soxasiga ham aloxida e'tibor berib kelinmoqda. Davlatimiz tomonidan ta'limni rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlarning barchasi yosh avlodning xar tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishiga ximat qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim To'g'risidagi Qonun ning ishlab chiqilishi ta'lim soxasini rivojlanishining yangi bosqichi bo'ldi.

Yosh mustakil davlatni rivojlangan mamlakatlar katoriga olib chikishda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish xamda bilimli xar tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazfasi muxim masala sifatida karaladi. Bu masalana xal kilishda Ta'lim tugrisidagi Qonun xamda ta'lim standartlari va Ta'lim tugrisidagi barcha karorlar kursatma sifatida muxim axamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni aqliy mexnat faoliyatiga o'rgatish xamda ularga chukur bilim berish muxim axamiyat kasb etadi. Yukoridagi maksad va vazifalarni amalga oshirish uchun esa o'qituvchilardan ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etish talab kilinadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni aqliy mexnat faoliyatiga o'rgatish xar bir o'qituvchidan yuksak maxorat, ta'limni tashkil etish tugrisidagi bilimlar tizmini mukammal egallash, o'quvchilar bilan ishlash va ularni mustakil faoliyatlarni tashkil etishni uyushtira olish kunikma va malakalariga ega bulishlikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunida o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish va unga kumak berish yullari kursatib berilgan.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqliy mexnat faoliyatga o'rgatish yuzasidan bir qator olimlar jumladan: A.Q.Munavvarov, R.Mavlonova, B.Barotov, M.Xaydarov , T.X.Xasanovlarning tolib borgan ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchilarnp mustaqil faoliyatga tashkil etish ishlari o'rganilgan.

Olib borilgan ilmiy ishlarning natijalarga asosan taxlil qilinsa ham xali o'quvchilarning aqliy mexnat faoliyatlarini tashkil etish muammosi bugunning dolzar masalasi sifatida qolmoqda. Shu sabali ham biz Bitiruv ishimizning mazusini "Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy mexnat faoliyatlarini tashkil etishning pedagogik asoslari" deb oldik.

1. TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARINING AQLIY MEXNAT FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISHDA MILLIY TARBIIYANING ROLI

Mustaqil O'zbekistonning milliy tarbiya siyosatini belgilovchi tamoyillardan biri bu milliy-ma'naviy mexnat bo'lmog'i kerak. Masalaning ana shu tarzda qo'yilishiga qator sabablar bor. Birinchadan, bu tamoyil jumladan, O'zbekiston yurtidagi o'zbek va boshqa millat vakillarining ta'lim va tarbiya tizimidagi tub moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ifodalaydi. Bugungi O'zbekiston rivojlangan mamlakatlar, Fransiya, Olmoniya, Yaponiya kabi milliy davlatdir. Shuning uchun mustaqil O'zbekistonda «millat», «milliylik» tushunchalari nafaqat etnik, balki yangi-ma'naviy va madaniy ma'no kasb etishi qonuniy holdir. Tadqiqotchilardan buni nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqishni, ya'ni «o'zbek milliy oilasi bolasining botiniy va zohiriy siymosi» ni bilib tadqiq etishni taqozo etadi. Bu esa, eng avvalo, O'zbekiston pedagogika fanidan «Milliy va zamonaviy o'zbek bolasining siymosi qanday bo'lishi kerak?», degan savolga aniq javob berishlarini talab qilmoqda.

O'zbek bolasining botiniy va zohiriy siymosi nimada ko'rinadi? Bu milliy tarbiyani hayotga tatbiq qilish sari qo'yilgan birinchchi qadam deb hisoblaydigan bo'lsak, unda milliy tarbiyaning maqsadi yoki «o'zbek bolasining siymosi» qaysi manbalardan kelib chiqib belgilanadi?

U avvalo, o'zbek xalqi ongidagi hayot tushunchasining yangilanishidan, insonning yashashdan maqsadi va qanday yashamog'i kerakligi haqidagi tasavvurdan, har bir o'zbek otana orzularining ilmiy-nazariy umumlashmasidan kelib chiqib belgilanadi. Milliy tarbiya bu – xalqimizning o'z farzandlarini qanday kishilar bo'lib yetishishlari haqidagi orzu-umidlarning pedagogik in'ikosidir.

O'zbek xalqi o'z farzandlari uchun ideallarni xalq pedagogikasi, ertak, maqol, doston va qo'shiq, shuningdek, san'at asarlarida aks ettirib kelgan. Ulardan ijodiy foydalanish hozirda ham o'ta zarurdir.

Masalaning muhim tomoni shundaki, hozirgi o'zbeklar zamon bilan hamnafas yashamoqda. Jaxon miqyosida ilm-fan, madaniyat, san'at, texnika va kompyuter, texnotron era sharoitida yashashga hozirlik ko'rmoqdalar. Bugungi mustaqil O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati, iqtisodiy taraqqiyoti talabi ham shunga undamoqda. Shu tufayli xalqimiz milliy ongidagi barkamol o'zbek bolasi siymosi ham zamonaviylashib bormoqda. Bugungi o'zbek bolasi o'tgan asrdagi o'zbek bolasidan keskin farq qiladi. Endilikda o'zbek bolalarining qanchalik darajada milliy-madaniylashganini tadqiq qilmoq, ularni manqurtlik, kosmopolitizm, har xil aqidaparastlik va boshqa illatlardan himoyalashni doimiy asosga qo'ish payti yetdi. O'zbek bolasi siymosini yaratish uchun eng avvalo, milliy tarbiyaning huququiy-me'yoriy, sotsiologik tadbirlarini ishlab chiqmoq kerak.

Mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotidagi katta yutuqlardan biri-vijdon erkinligidir. Ana shundan kelib chiqib milliylikni to'g'ri va chuqur tushunishning qanchalik maqsadga muvofiqligini, hayot o'rtaga qo'ygan muammolarning muvaffaqiyatli hal qilinishiga yordam bera olish-olmasligini muhokama qilish kerak. O'zbek o'g'il-qizlari milliy tarbiya asosida komil inson siymosiga ega bo'lmoqlari darkor.

Pedagogik jarayonda darsning maqsadini belgilashda o'zbek xalqi pedagogikasi manbalardan avlodlar vorisligi tizmidan unumli foydalanib, Vorislik-uzluksiz rivojlanishga asosli jarayon ekanligi, makon va zamonda amalga oshirilishi. Jismoniy vorislik zurriyod orttirish bilan, moddiy-iqtisodiy vorislik-meros qoldrish bilan, ma'naviy vorislik-tarbiya berish bilan ta'minlanadi.

Tabiat, ijtimoiy sharoitlar, ta'lim omillari vorislikka xalaqit bergan yoki rag'bat ko'rsatgan holda bir-biri bilan uyg'unlikda oshyon bo'ladi. Tarbiya vorislikni yanada kuchaytiradi. Goho, hattoki, hech narsa bilan mustahkamlanmaydigan va faqatgina taqlid doirasida amal qiladigan ko'r-ko'rona tarbiya jarayoni vorislikni ta'minlaydi. Imo-ishoralarni, yuz ifodalarini, ota-onalari ra'yini bolalar o'zlaricha qayta vujudga keltiradilar. Mehnat manfaatlari sohasida ham vorislik goho shunchaki qiziquvchanlikdan-oddiy tahliddan paydo bo'lishi mumkin. Xalq san'ati sohasida ham xuddi shunday hol yuz berishi ehtimoldan holi emas.

Vorislik ko'p shakllardan namoyon bo'ladi. U mutlaqo shaxsiy maqsadda ham, oilaviy an'analarni davom ettirish va mustahkamlash shaklida ham amalga oshiriladi. U umumhalk, umummilliy, umumbashariy xususyatga ega bo'lishi mumkin. Vorislikning umumbashariy jihatlarni kuchaytirish ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiradi. Vorislik qanchalik keng va teran bo'lsa, alohida shaxsning ham, jamiyatning ham rivoji uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Farzandlarning yaxshi shashi uchun ota-onalarning ongli yendashuvlari vorislikning ta'lim jihatinı o'zida namoen etadi. Yangi turmush kuraetganlarga kilinadigan duo-fotihalarda, to'y-hashamlarda, yangi tug'ilgan chchakalokka niyatlar bildirishadi bunday g'amxo'rlik doimo hamroh. Ushbu jihat tarbiyaga berilgan kattik e'tibordan bilinadi. Ma'rifatparvar shoir Zokirjon Furqat avlodlar vorisligini, eng avvalo xalqning o'ziga xosligida ko'radi. Har bir xalq o'ziga xos bo'lgan hayotga ega bo'lganidagina insoniyatning bu umumxazinasiga ulush qo'sha oladi. Narsa va hodisalarga o'z fikr va dunyoqarashi bilan munosabatda bo'lishi, dinga, tilga, ayniqsa, urf-odatlarga o'z turmush tarzidan turib baho berish-o'ziga xoslikning asoslarini tashkil qiladi.

«qazisan, qartasan, asli naslinga tortasan», «Yomon turug'dan yaxshi hosil kutma», «Ota-ona-andoza», «Jiydaning tagiga jiyda tushadi, olmaning tagiga olma», «Onasini ko'rib qizini ob» kabi maqollar bizning merosiy vorislikni nechog'li qadirlashimizdan dalolatdir.

Xalq ta'limida yomon tarbiyani aavloddan-avlodga meros qoldirish degan gap

Aytish lozimki, asl tarbiyachi, u xoh ota-ona bo'lsin xoh o'qituvchi-tarbiyachi bo'lsin na jazoni, na rag'batni inkor qilolmaydi. Jazosiz, rag'batsiz tarbiyani faqat abstrakt-mavxum holat sifatidagina tasavvur qila olish mumkin. Bu o'rinda, albatta, jazo va rag'bat tushunchasiga aniqlik kiritmoq kerak. Aks holda o'sha mavxum nokerak jazo va rag'bat haqida gap ketishi mumkin.

Demak, tarbiyada har qanday dalda, undov, xayr-hoxlik, yaratilgan imkon, monelik qilmaslik va boshqalar -rag'batdir. Ushbularning aksi-man qilish, harakat va faoliyatga imkon bermaslik, xayrixoxlik, ko'rsatmaslik, inkor va boshqalar, shaxs ruhiga jazo sifatida ta'sir qiladi. Shunday ekan, psixologiya fani nuqtai nazaridan olganda tarbiya na jazosiz va na rag'batsiz faoliyat kechira olmaydi. Tarbiya jarayonida jazo, rag'bat shaxsning ulg'ayish u davrida alohida o'rin tutib o'z ta'sir darajasini o'zgartirib boradi, xolos.

Bu o'rinda qadimiy, tarbiyaga bevosita aloqador: inson, shaxs, tarbiyalanuvchining ruhiyatini inobatga olib aytilgan ibora o'ta o'rinlidir. Ya'ni, «so'ksang beti qotadi, ursang eti qotadi».

Tarbiya jarayonida ishlatiladigan bu ibora o'ta psixologik bo'lib tarbiyalanuvchining jazoga nisbatan ko'nikib borishini, boshlab qo'llanilgan kichik jazolar borib borib bolaning na betiga, na etiga ta'sir qilmay qo'yishini ta'kidlaydi. Bolaga tarbiya jarayonida boshlab qo'llanilgan jazo chorasi tobora murakkablashib, tobora kuchliroqlashib borishi ko'rsatilgan. Demak, tarbiya jarayonida jazo chorasi mumkin qadar qo'llanilmasligi, uning o'rnini rag'bat egallab borishini taqozo qiladi. Faqat rag'bat kerakli natija bermay qolgan holda tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlar, tarbiyalanish tarixdan kelib chiqibgina va ayni tarbiyaning shu davriga va vaziyatiga mos jazo chorasi topilishi lozimligini xayot taqozo qiladi.

Ma'lumki, inson ruhi, uning xotirasi o'ziga va uning atrofida bo'lib o'tgan voqealarga o'ta sezgir bo'lib ulardan bevosita xulosa chiqarib shakllanib boradi.

O'quvchi birinchi ga birinchi bor kelganidan boshlaboq, aytaylik, barcha kechikish qoralanishni, agar bu hol uning faoliyatida ro'y bersa jazolanishni biladi. Demak, darsga tez-tez kechikib keladigan bolaga beriladigan jazo bilan, bu holatni birinchi bor sodir qilgan bolaning jazosi bir xil bo'lib qolmasligida haqiqiy pedagog tarbiyachining mahorati namoyon bo'ladi.

Bola tarbiyasida tarbiyachining mahorati uning qo'l ostidagi tarbiyalanuvchi shaxsga tarbiyaviy ta'sir chog'ida rag'batning shaxs xulqini korreksiya-ma'lum darajada yo'naltirish sifatida mohirona foydalanishdadir. Bu o'rinda tarbiyachi bola faoliyatida sodir etilgan uch xarakterning ikkitasi salbiy bo'lib, faqat bittasi ijobiy bo'lsa ham, avvalambor aynan mana shu

ijobiy harakatni e'tirof etsa u shu yo'l bilan qolgan ikki harakatni inkor qilmoqda. Ya'ni ularni qabul qilmaslik yo'li bilan bolaning salbiy xarakatlarini jazolamoqda. Demak tarbiyachi shu yo'l bilan bola faoliyatidagi ijobiy harakatga tayanmoqda. Bu esa o'z o'rnida nafaqat jazo va rag'bat bo'lib qolmay, alohida ruhiy ta'sir hamdir.

Tarbiyalanuvchi o'z qilgan xarakatlarini doimo biladi. Ayni sh o'rinda uning o'z salbiy harakatlarining ochiq jazosiz qolishi va birgina ijobiy harakatining rag'bat topishi kuchli ruhiy ta'sir bo'lib, unga, uning ruhiga singadi. Bu holda biz tarbiyachi sifatida o'ta katta imkoniyatni qo'lga kiritamiz, ya'ni, shaxsning o'zini- o'zi tarbiyalashiga zamin yaratamiz.

Ma'lumki, tarbiyachilarning har qanday tarbiyaviy faoliyatlari tarbiyalanuvchining o'zini o'zi tarbiyalashi, o'zidagi ijobiy va salbiy xususiyatlarining korreksiya -ya'ni, ma'lum tomonga ongli ravishda yo'naltirilishiga qaratiladi. Ayni shu holni inobatga olar ekanmiz, bola faoliyatidagi ijobiy harakatni birinchi bo'lib tan olish, uni bu faoliyatga rag'batlantirish bo'lib uning ruhiga singadi, bola o'z hulqiga, o'ziga ma'lum o'zgarishlarni kiritadi. Boshqacha qilib aytganda, jazoning qo'llanilmagani rag'batning ijobiy kuchi uning o'zini - o'zi tarbiyalashga olib keladi. Bola hulqini psixologik korreksiya qilish eng kichkina rag'bat, aytaylik, dalda, yahshi so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan, o'qituvchi da bolalarning bir vazifasini bajarayotganini kuzatmoqda. Hamma yozuv bilan band, o'qituvchi o'quvchi Z. ning olidan o'tayotib «yahshi, davom ettiraver», deyishi Z. ga katta rag'bat, dalda, uning ishinig to'g'riligiga tasdiq.

Aytaylik, o'quvchi B. hali yozishni boshlagan emas. Har xil xarakatlar bilan band, bir - ikki qatorgina yozgan xolos. Ayni holda B. o'z temperamenti bilan flegmatik, u har ishni sekin boshlab batafsil bajaradi. Shular inobatga olinsa, o'qituvchi B. ga nisbatan, yaxshi boshlabsan, davom ettiraver, desa bu B. uchun katta dalda bo'ladi. U ushbu rag'batga flegmatikligi uchun muxtoj. Ammo o'qituvchi B. ga qarab, «xali ham o'tiribsanmi, ishla tezroq», desa bu bir qaraganda unchalik koyish bo'lmasa ham, ya'ni jazo sifatida boshqalar tomonidan qabul qilinmasa ham, ayni B. uchun jazo bo'lib tuyuladi. Vaholanki, u bekor o'tirgani yo'q, flegmatik bo'lgani uchun ishga tez kirisholmayapti, shu bilan birga qilinadigan ishni avval puxta o'ylab keyin davom ettirmoqchi.

Ushbu misoldan ko'ramizki, kimgadir kichkina dalda katta rag'bat bo'lib ta'sir qilsa, boshqa birovga tarbiya jarayonida uning faoliyatini e'tirof etmaslikning o'zi jazo bo'lib tuyulishi mumkin.

Yana bir narsani alohida qayd qilishi lozimki, har qanday jazo va rag'bat o'z o'rnini va vaqtida qo'llanilmas ekan, ularning adekvat ta'sirini kutish qiyin. Bu o'rinda yana bir hol, ya'ni ayniqsa jazoning jamoa orasida ochiq bo'lmasligining lozimligi.

Tarbiyada jazo va rag'bat odatda birga tilga olingani bilan, jazoning qo'llanilish sharoiti rag'batnikiga butunlay to'g'ri kelmaydi. Rag'bat o'z o'rnida doimo , (ba'zi hollar bundan mustasno) ochiq , jamoa ichida qo'llanilishni taqozo etsa, jazo aksincha , doimo individual, yashirin faqat o'ta kam holatda ochiq va jamoa ichida qo'llanilishni taqazo etadi.

Me'yoridan oshgan rag'bat bola tarbiyasiga qanchalik salbiy ta'sir qilsa, me'yoriga yetmagan jazo ham shunchalik salbiy ta'sirga ega. Bu o'rinda , me'yoridan oshgan jazo xaqida so'z yuritishning o'zi ortiqcha. Chunki, tarbiya jarayonida me'yoriga yetmagan jazo chorasini ba'zi hollarda qo'llash mumkin desak, ham, me'yoridan oshgan jazo chorasini umuman qo'llash mumkin emas, demoqchimiz.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi va unda shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning mexnati uning intellektual zakovatiga jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi.

Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina uyg'onishi, taraqqiy etishi va shaxs mexnatini ta'minlashi mumkin. Shuning uchun bolaning intellektual salohiyatini rivojlantirishda maktabgacha ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu narsa maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bular:

- Qaysi bola nimaga qiziqadi va u nimaga qodir?
- Bu bola nega uyatchan, tortinchoq, u nimaga qiziqadi?

Tarbiyachi ushbu savollarga javob topishi kerak.

Shuning uchun tarbiyachilar bog'chalarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning ehtiyojlari o'rganilib, imkoniyatlari hisobga olingan holda qobiliyatini rivojlantirish choralari belgilansa, shaxsdagi intellektual imkoniyatlar to'liq namoyon bo'ladi.

Mustaqillikning ilk davrlarigacha qo'llanilib kelgan "Maktabgacha ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya dasturida" bolalarning qobiliyat va intellektual imkoniyatlarini hisobga olish darajasi cheklangan edi.

Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalari amal qilayotgan "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi esa bu kamchiliklarga chek qo'ydi desak bo'ladi. Ya'ni unga berilgan e'tibor bolalarni jismonan, ham ma'nan va aqlan tarbiyalash zarur - degan maqsadi dunyo bo'yicha tan olingan "UNICEF" bolalar jamg'armasining "Har bir bola uchun salomatlik, ta'lim, tenglik, himoya yuksak imkoniyatlik yo'lida" degan bosh shioriga mos keladi.

Bolalarning intellektual salohiyatini o'rganishda tarbiyachi va ota-onalar bilishi kerak:

- Har bir shaxs o'ziga xoslikka ega.
- Bolalarning qobiliyati, ehtiyoji va intellektual imkoniyatlari bir xil emas. Ulardagi ehtiyoj, qobiliyat va imkoniyatlar o'rganilib, uning rivojlanishga tomon qilingan astoydil xarakat

samarali natija beradi. Bolaning imkoniyatlaridan ortiq (ya'ni, qobiliyat, ehtiyoj hisobiga olinmay) qilingan harakat quyidagi hollarga olib kelishi mumkin:

- a) bola, mashg'ulotlardan zerikadi;
- b) o'qishga bo'lgan qiziqishi susayadi;
- v) o'ziga ishonmay qo'yadi;
- g) inson sifatida shakllanishi susayadi;
- d) qiziqish va qobiliyatlarning yuzaga chiqishi sekinlashadi;
- ye) maktabga bo'lgan intilishi sekinlashadi.

Aniq misollarga murojat etadigan bo'lsak, katta guruhdan boshlab, bolalarga ko'p predmetlarning o'qitilishi mashg'ulotlarda qobiliyati past bolalarni zeriktirib qo'yadi. Xatto maktablarda ham ko'p predmetlilik o'zlashtirish samarasini susaytiradi.

Shuning uchun rivojlangan davlatlardagi maktabgacha ta'lim muassasalari va ta'lim tizimida ko'p predmetlilik emas, bolaning tanlashi va imkoniyatlarini hisobga olib o'qitishga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Chunki har qanday bolada (xatto zehni past bolada ham) ba'zi bir qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilar belgilangan predmetlarni o'qitishga ko'proq e'tiborni qaratishi kerak emas, balki ta'lim-tarbiya tizimidagi imkoniyatlarini izlash kerak. Natijada boladagi qobiliyat nishonasi pasayib va ba'zan yo'qolib ketib emas, balki rivojlanib, barq uradi.

3 yoshdan boshlab bolalardagi bor imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish ustida muntazam ishlansa, bolaning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos solinadi.

Bolalar intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishning yo'llari:

- Bolaning har bir berilgan savoliga erinmay to'liq javob berish.
- Yangi savollar berishiga imkoniyat yaratish.
- Qiziqarli suxbatlar o'tkazish.
- Ertak, hikoya, topishmoq aytib berish.
- Qiziqarli, rasmiy kitoblar, o'yinchoqlar sovg'a qilish.
- Har xil o'yinlar (rolli, ijodiy) tashkil etish va bu o'yinlarga ularni jalb etish yoki qatnashtirish.
- Rasm chizdirish – (o'zining yoqtirgan narsasini chizdirish)
- Gerbariylar tayyorlash.
- Loy va plastilindan narsalar yasatish.
- Sayrlarga olib chiqish – (sayrdan oldin taassurotlarini so'zlatish va chizdirish).
- Qurish – yasash mashg'ulotlaridan erkin holda qo'yish.

- Ijodiy hikoya qilishga o'rgatish.

Ilg'or tarbiyachilar tajribasini o'rganish shundan dalolat beradiki, bolalar tafakkuri rivojlanishining eng samarali yo'li – o'yin, mashg'ulotlar va sayr vaqtlarida bolalarga ongli bilim, mustahkam ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Buning uchun tarbiyachi tinimsiz izlanishi, mashhulot o'tishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalanish lozim. Tarbiyachining ta'lim-tarbiya jarayonining aniq maqsadini belgilashi, didaktik jarayonini aniq rivojlanishi yo'lini bilishi bu vazifani hal etishga muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani to'g'ri bajarishda tarbiyachilar quyidagilarga diqqat qaratishi zarur:

- tarbiyaning ta'limiy yo'nalishini kuchaytirish va bolalarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish;
- bolalarning tasavvur va xotira boyliklarini imkoni boricha ishga solish;
- bolalarning turli tafakkur jarayonlarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, har bir bolaning qobiliyat, qiziqishlarini, layoqatini rivojlantirish uchun ularga individual yondashaylik. Ularning intellektual qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida hormay-tolmay mehnat qilaylik. Bugungi kunga qadar bolalar intellektual imkoniyatlarini o'rganish va ro'yobga chiqarish, murakkab pedagogik muammo bo'lib kelmoqda, u muntazam izlanishni talab qiladi. Biz esa shu muammoga yechim topaylik.

2. O'QUVCHILARINING AQLIY MEXNAT VA QOBILIYATLARINI RIVOJLANIB BORISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Kishi psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo'lib, tabiat konunlarining moxiyatini tushunib yetishga xarakat kiladigan tadkikotchilarni bu muammo xamma vakt kiziktirib kelgan. Materialistik yo'nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo'lishi uzok davom etgan materiya rivojlanishining natijasi deb izoxlaydilar. Ular materiyaning tabiatini tadkik kilishar ekan, xarakat materiyaning xayot kechirish usuli, uning tarkiban o'ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun xam materiya xarakatining turli shakllarini o'rganadilar.

Xarakatsiz, mutlako xarakatlanmaydigan materiya umuman bo'l-maydi. Olamdagi butun materiya, jami noorganik va organik tabiat xarakatlanish, o'zgarish va rivojlanish xolatida bo'ladi. Jonsiz tabiatda xarakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy va kimyoviy ta'siri tarzida yuz berishi mumkin. Jonli materiyaga in'ikosning biologik shakllari xos bo'lib, jonli materiyaning ma'lum bir boskichida in'ikosning yangi shakli sifatida psixika paydo bo'ladi.

Xar kanday jonli organizm barcha tashki ko'zg'atuvchilarga nisbatan tanlangan xolda munosabatda bo'ladi va bu bilan jonli materiyaning sifat jixatidan yangi xususiyatini - o'zini o'zi tartibga solish xususiyatini namoyon kiladi. Uzok vakt davom etgan evolutsiya natijasida xozirgi organizm-larda in'ikosning ko'zg'aluvchanlikdan tortib, to uning ancha yuksak darajadagi shakllari bo'lmish sezgilar, idrok, xotira, tafakkurga kadar turli shakllarini ko'ramiz.

Agar jonli mavjudotlarning xayot kechirish muxiti xamma joyda mutlako bir xil bo'lganida, extimol, yer yuzi bir xil turdagi xayvonlar bilan to'lib ketgan bo'lardi. Xakikatda esa muxit iklim jixatidan xam, yashash sharoiti jixatidan xam g'oyat rang-barang bo'lib, bu organizmlarning tabakalanishini takozo etadi. Aks ettirish usullari yuksalgan sari xayvonlarning mazkur turi muxitning bevosita ta'siridan shunchalik ozod bo'la boradi.

Yashash sharoitlarining keskin o'zgarishi xayvonlarning joyini o'zgartirishga majbur etishi azaldan ma'lum. Xayvonlarning bunday xatti-xarakatlari sharoitga ko'prok yoki kamrok darajada mos bo'lishi mumkin. Cho'l toshbakasi va mayda kemiruvchilar issik kunlar boshlanishi va kishki sovuk tushishi oldidan o'zlarining normal xayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarga ancha mos keladigan xarorat saklanadigan chukur in kazib, yer tagiga kirib ketadi.

Bu o'rinda instinktlar xarakat kiladi. Fil o'ziga suv sepa boshlaydi, kalin soyaga yashirinadi, maymun xam issikdan saklanishi uchun imkon beradigan joyni tanlashga va tayyorlashga urinadi. Bu o'rinda instinktlardan ko'ra xayvonlar individual xayot kechirishida orttirgan tajriba - shartli bog'lanishlar ta'sir kiladi. O'simlik va xayvonlarga mansub shakllar

evolutsiyasining barcha bosqichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning aloxida, biologik shakli - ta'sirlanuvchanlikka ega bo'ladi. Ta'sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan (biotik) ta'sirga javob berish kobiliyati demakdir. Oddiy ta'sirlanuvchanlik sodda, bir xujayrali tirik organizmdayok seziladi. Ular muxitning ta'siriga xarakatlanish bilan javob beradi. Muxit biotik ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lib, buning natijasida jonli organizmda protoplazmaning xossasi o'zgaradi. Ko'zg'atish ta'siriga uchraydigan o'zini tartibga soluvchi tizim sifatida tirik xujayrada kidiruv xarakatlari xosil bo'ladi. Biotik omillarga nisbatan o'ziga xos xarakatlar bilan javob berish usullari tropizmlar yoki taksislar deb ataladi. Uning fototropizm - jonli organizmning yorug'lik ta'siri ostida xarakatlanish tendensiyasi; termotropizm - issiklik ta'siri ostida xarakatlanish tendensiyasi; xe-motropizm - muayyan fizikaviy-kimyoviy muxitni tanlash tendensiya-si; topotropizm - mexanik usul bilan ko'zg'atuvchining ta'siri ostida xarakatlanish tendensiyasi kabi turlari va boshka bir kancha tropizmlar mavjuddir. O'simliklarning biologik in'ikos etish shakli o'zini tartibga solishga yordam beradigan tropizmlarning mavjudligi bilan mukam-mallik kasb etadi.

Xayvonlarga mansub shakllarda ta'sirlanuvchanlikning yangi turi - sezuvchanlik paydo bo'ladi. A. N. Leontevning faraziga ko'ra, se-zuvchanlik ginetik jixatdan karaganda, muxitning organizmni boshka ta'sirlar bilan bog'lovchi, singallik vazifasini o'tovchi ta'sirlarga ja-vob ta'siridan bo'lak narsa emas.

Yuksak tarakkiy etgan xayvonlarda sezuvchanlik oshib, sezgi organlari shakllanadi. Narsalarning o'ziga (biron-bir organik extiyojli, ular yordamida koldirib bo'lmasligi ma'nosida) axamiyatsiz belgilari (xidi, shakli, rangi) signallik axamiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun xam ma'lum bir sharoitlarda xatto oddiy xayvonlar xam biotik ta'sir-lardan emas, balki mazkur muayyan vaziyatda turli xildagi biotik ta'sirlar ro'y berayotgani xakida signal berishi mumkin bo'lgan biotik, indeferent ta'sirlardan xam ta'sirlana boshlashi mumkin.

Onadan tug'ma ravishda kolgan xatti-xarakatlarga instinktiv xatti-xarakatlar deyiladi. Instinktiv reaksiyalar xatti-xarakatlarning tug'ma shakllarini ishga tushirishga olib keladigan oddiy omillar tufayli sodir bo'ladi.

Shunday kilib, malakalar bir-biridan jiddiy ravishda fark kilishi mumkin: bir xil xolatda ular avtomatik takrorlanishiga ko'ra instinkt-larga yaqin tursa, boshka bir xolda intellektual xatti-xarakatlarga yaqinlashib ketadi. Ayrim narsalar o'rtasida murakkab munosabatlar-ning aks ettirilishi intellektual xatti-xarakatlar negizini tashkil etadi. Yuksak tarakkiy etgan xayvonlar narsalar o'rtasidagi munosabatlarni paykash kobiliyatiga va mazkur vaziyatning natijasini oldindan bilish, ya'ni o'sha narsa agar u xarakat kilayotgan bo'lsa, kaerda paydo bo'lishini xisobga olish kobiliyatiga egadir. Bunday xatti-xarakatni akliy xatti-xarakat deb ayta olamiz.

Xayvonlarning ayrim turlarida instinktlar ustun bo'lsa, boshkalari-da shaxsiy tajriba jarayonida o'ttirilgan bog'lanishlar ustunrok bo'ladi.

Munosabat bildirishning ayrim usuli sifatida instinktlar va mala-kalar xayvon organizmini ortikcha zo'rikishdan saklaydi. Xayvon ka-torasiga bir necha bor muvaffakiyatsizlikka duch kelganda, keyincha-lik masalani xal kilishning yuksakrok darajadagi usuliga, ya'ni intel-lekt (akl-idrok) bilan ish ko'rish usuliga murojaat kiladi. Birok vujud-ga kelgan vaziyat xayvonlar uchun kamdan-kam xolda muammoga aylanadi va binobarin, ancha yuksak idrok ishlatiladigan darajada aks ettirish aloxida zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi. Intellekual xatti-xarakat xayvonlarning ko'pincha yashirin imkoniyati sifatida kolib ketadi.

Xayvonlarning o'zaro munosabatlari ba'zan juda xam murakkab-lashib ketadi. Ganglioz asab tizimiga ega bo'lgan va katta-katta to'da-larga birlashib xayot kechiradigan xayvonlardayok fakat murakkab individual instinktiv xatti-xarakatlarnigina emas, balki o'sha to'daning aloxida bir vakili "tili"ga nisbatan instinktiv reaksiyalari xam rivojlan-ganligini ko'rish mumkin. Ganglioz asab tizimiga ega bo'lgan xayvonlardagi "til" gavdasini ma'lum bir ko'rinishda tutish bilan akustik signallar, kimyoviy (xid bilish) axborotlar, turli suykashlar orkali ifoda etiladi.

Yuksak tarakkiy etgan xayvonlar (kushlar, sut emizuvchilar)ning to'dasida xam o'zaro munosabatlarning muayyan shakllari mavjuddir. Xayvonlarning xar kanday tarzda biron-bir to'daga birlashuvi bilan aloka kilishlari uchun zarur bo'lgan "til"ning paydo bo'lishiga olib keladi. Xayvonlarda kiyofa, suykash "til"dan tashkari, eshitiladigan signallar "til"i xam bor. Sayroki kushlarda, delfinlarda, maymunlarda murakkab tovush signali borligi bayon kilib o'tildi.

Chikariladigan tovush xayvonning emotsional xolatini aks ettiradi. Bitta to'dadagi xayvonlar bir-birining tovush reaksiyalariga karab mo'ljal olishadi. Tovush reaksiyalari to'daning vakillariga o'z sherik-larining kanday xolatdaligi xakida ko'shimcha axborot yetkazadi va shu yo'sinda to'daning ichida xatti-xarakatni yo'naltirib turadi. Xayvonlarning "tili"da fakat bitta narsa yetishmaydi -xayvonlar-ning "tili" odamlarning tilidan farkli o'larok, tajribani ifoda etish vositasi bo'lib xizmat kila olmaydi. Shuning uchun xam biron-bir aloxida buyuk jonzod vakili o'zining individual tajribasida anchagina oson ovkat topishning bir kator usullarini topadi deb taxmin kilgani-mizda xam, u o'z tajribasini xayvonlar ixtiyoridagi "tilda" mavjud bo'lgan vositalar bilan ifodalashga kodir emas. Odam psixikasi bilan eng yuksak tarakkiy etgan xayvon psixikasi o'rtasida juda katta tafovut mavjud.

Masalan, xayvonlarning "tili" bilan odamning tilini bir-biriga takkoslab bo'lmaydi. Xayvon o'z to'dadoshlariga muayyan, bevosita vaziyat bilan cheklangan xodisalar xakida fakat xabar berishigina mumkin bo'lgan bir paytda kishi til vositasida boshka odamlarga o'tmish, xozirgi payt va kelajak xakida axborot berishi, ularga ijtimoiy tajribani yetkazishi mumkin. Insoniyat tarixida til tufayli aks ettirish imkoniyatlarining kayta kurulishi yuz berdi: borlik kishi miyasida

yanada ravshan aks etadi. Xayvonlarning "tili" bilan odamlarning tili o'rtasidagi fark tafakkurdagi tafovutni xam belgilaydi. Shunday kilib, xayvonlarning anik, amaliy tafakkuri ularni muay-yan vaziyatdan bevosita ta'sirga bo'ysundiradi, odamning mavxum-lashgan tarzda tafakkur yuritishiga bo'lgan kobiliyati uning ushbu muayyan vaziyatga bevosita bog'likligini bartaraf etadi. Kishi, xusu-san, o'zi anglagan zaruratga ko'ra ongli xatti-xarakat kilish kobiliyati-ga ega. Bu inson psixikasining xayvon psixikasidan eng birinchi mu-xim farkidir.

ayli organizm muxit o'zgarishlariga tez javob kila oladigan va moslashuvchan bo'la bordi.

Yuksak tarakkiy etgan xayvonlarda a'zolarining ixtisoslashuvi ozukani farklash, xavf-xatarni juda tez va anik sezish imkoniyatini beradi. Ixtisoslashuvning yakkayu-yagona funksiyasi signallarni idrok etishdan iborat xujayralarning paydo bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bu xujayralar ritseptorlar (tashki muxitning ta'sirini kabul kiluvchi apparat) deb atalmish xujayralar guruxini tashkil etadi.

Boshka xujayralar mushak to'kimalari ishini yoki turli bezlarning shira chikarishini o'z zimmasiga oladi. Bunday xujayralar effektorlar deyiladi. Organizmning asosiy "boshkaruv pul'ti" - markaziy asab tizimi xisoblanadi.

Asab tizimi tuzilishining umumiy rejasi barcha umurtkalilarda bir xildir. Uning asosiy elementlari asab xujayralari yoki neyronlar bo'lib, ularning vazifasi ko'zg'atishdan iborat. Neyron xujayra tana va tana-chaning shoxlab ketgan o'simtalari - ko'zg'alishni kabul kiluvchi dendritlardan va ko'zg'atishni boshka neyronlarga o'tkazadigan tolalar -aksonlardan tarkib topadi. Aksonning dendritlar bilan yoki boshka neyronlarning xujayra tanasi bilan bog'laydigan nukta sinaps deb ataladi. Markaziy asab tizimi ikki kismdan - bosh miya va orka miyadan tashkil topgan. Bosh miyaning yukori kismi olti kavat (10 milliardga yakin) neyronlar bilan koplangan xamda po'stlok deb ataladigan katta yarim sharlarni xosil kiladi. Po'stlok - psixik faoliyatning eng muxim (lekin yakkayu-yagona emas) organi. U yarim sharlardan pastrokda, ensa kismida miyada joylashgan bo'lib, uning funksiyalari xali yetar-licha o'rganilmagan. Po'stlokning mushaklar xarakatini uyg'unlashti-rishda muxim o'rin tutishi ma'lum.

Katta yarim sharlar miya naychasiga kelib takaladi. Naychaning yukori kismi - talamus orka miyadan yarim sharlarga boradigan bar-cha asab yo'llari uchun "oralik stansiya" vazifasini bajaradi. Naycha-ning pastki kismi - gipotalamus suv almashuvi, ovkatlanish extiyojini va organizmning boshka funksiyalarini boshkarib turadigan markaz-lardan tarkib topgan.

Xozirgi zamon fanidagi mavjud tasavvurlarga karaganda, orka miya va miya naychasi reflektor faoliyatining asosan tug'ma (shartsiz reflekslar) xisoblangan shakllarini amalga oshiradi, katta yarim shar-larning kobig'i esa xayot kechirish jarayonida orttiriladigan va psixika tomonidan boshkariladigan xulk-atvor shakllari organi xisoblanadi.

Tananing xar bir sezuvchi a'zosi (teri, ko'zning to'r pardasi va shu kabilar) va xar bir xarakat a'zosi miyada o'zining xususiy markazlariga egadir. Insondagi katta yarim sharlar kobig'ining anchagina kismini ko'l barmoklari, ayniksa bosh barmok faoliyati bilan bog'lik xujayralar, shuningdek nutk organlari va til mushaklari funksiyasi bilan bog'lik xujayralar egallaydi. Shunday kilib, odamning katta yarim shari kobig'ida mexnatda va muomalada asosiy funksiyani bajaradigan xarakat a'zolari ancha ko'p joylashgan.

Miya katta yarim sharlari ishining umumiy konunlarini I. P. Pavlov aniklab bergan. Psixikaning organi - bosh miya xam o'zgardi. Uning xayvonlar miyasidan sifat jixatdan farki yuksak bilish jarayonlari, avvlo, tafakkur mexanizmlarini o'rganish paytida yakkol namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar sezgi va idrok jarayonlari singari miyaning muayyan kislmlari doirasida cheklanib kolmaydi. Agar odamda kobikning ensa kismi shikastlangan bo'lsa, u ko'rish sezgilarini yo'kotishi turgan gap. Odamning psixik xayotida katta yarim sharlar kobig'i sirtining 30 % ni egallaydigan peshana kislmlari aloxida o'rin tutadi. Peshana kislmlarining (kasallik, yaralanish va shu kabilar okibatida) shikastla-nishi xulk-atvorning oddiy ko'rinishlariga emas, balki yuksak ko'ri-nishlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pshana kislmlari shikastlangan bemorlar ko'rish, nutk, yozish kobiliyatlarini saklab kolib, arifmetika masalalarini yechgan xolda, uning shartlarini taxlil etishga urinmaydi. Masalani yechish rejasini tuzganlarida oxirgi savolni tushirib koldira-dilar. Ular masalaning yechimini uning sharti bilan solishtirib chik-maydilar, o'z xatolarini sezmaydilar va xokazo. Ko'pgina klinik faktlar shuni ko'rsatadiki, miyaning peshana kislmlari shikastlanishi akliy kobiliyatni susaytirish bilan birga, kishi-ning shaxsiyati, uning xarakterida xam kator buzilishlarga sababchi bo'ladi. Oldin xushmuomalaligi, vazminligi bilan ajralib turgan bemorlar yengiltak, kizikkon, ko'rs bo'lib koladilar. Psixik funksiyalar muayyan tarzda chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taksimlangan bo'lishi aniklangan. Xar ikkala yarim shar ax-borotni obrazlar tarzida xam, so'zlar tarzida xam kabul kilish va kayta ishlash kobiliyatiga ega, ammo chap va o'ng yarim sharlar u yoki bu funksiyalarning turlicha darajada ifodalanishi - bosh miyaning funksional assimetriyasi xam yuz beradi. Chap yarim sharning funksiyasi o'kish va xisoblashdan ko'ra ko'prok belgilarga asoslangan axborot (so'zlar, belgilar, rakamlar va shu kabilar)ga tayanishdan iborat. Chap yarim shar mantikiy tuzilishlar imkoniyatini ta'minlaydi, busiz izchil analitik tafakkur bo'lishi mumkin emas. Chap yarim shar faoliyatining izdan chikishi, odatda nutkning buzilishiga (so'zlash kobiliyatining yo'kolishiga) olib keladi, normal muomala imkoniyati-ni yo'kka chikaradi, asab to'kimalari og'irroq shikastlanganda, fikr-lash faoliyatida jiddiyrok nuksonlar sodir bo'ladi. O'ng yarim shar obrazi axborotni ishga solib, bo'shlikda mo'ljal olish, musikani idrok etilayotgan va tushunilayotgan obektlariga nisbatan xis-xayajonli munosabatda bo'lishga imkon beradi. Bosh miya yuksak tarakkiy etgan xayvonlar va

odam psixikasini belgilaydigan darajada faoliyat ko'rsatadigan organ yoki, to'g'rirog'i, organlarning murakkab tizimidir.

Psixik va asab-fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati ancha murakkab masalalardandir. O'rganish jarayonida psixikaning o'ziga xos jixatlari asab-fiziologik xususiyatlardan kaysi muxim belgilari bilan fark kilishini aniklash mumkin.

Psixik jarayonlar o'zida ichki, fiziologik jarayonlarning emas, balki tashki obektlarning tavsifini (narsalarning shaklini, katta-kichikligi, o'zaro munosabatlarini) mujassamlashtiradi. Psixik jarayonlarning o'ziga xos jixatlarini tadkik etish psixika-ning mazmuni va tuzilishida neyrofiziologik jarayonlar mavjud bo'lmagani yoki sezilmasligi sababli jiddiy kiyinchilik tug'diradi. Xulosa kilib aytish mumkinki, psixikani fiziologik xodisa bilan va psixologiyani fiziologiya bilan almashtirishga yo'l ko'ymasligimiz kerak.

3. O'QUVCHILARNI AQLIY MEXNAT FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

XXI asr boshlariga kelib axborot texnologiyalari jamiyatning shu qadar muhim bo'lagi va tarkibiy qismiga aylandiki, mamlakatning barcha sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlanishi bevosita unga bog'liq bo'lib qoddi. Shu sababli har bir davlat bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirish masalasiga jiddiy e'tibor bermoqda.

Respublikamizda jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotning hamma sohalarini axborotlashtirish sari keng ko'lamda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish — axborotlashgan jamiyat sharoitida talaba-yoshlarni jamoatchilik va kasbiy faoliyatda to'laqonli va samarali qatnashishga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlarini axborot texnologiyalarini qo'llash asosida yaxshilash jarayonidir.

Mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonini axborotlashtirish mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish; o'qituvchi va uning rolini o'zgartirishga bo'lgan talablarni ortishi; o'rganuvchi shaxsining va uning individuallashtirish xususiyati rolining ortishi; ta'lim muassasa rolining o'zgarishi va uning o'quvchi-yoshlar tarkibi joylashgan joyga ta'siri; axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishi; axborot xizmati ko'rsatishning ahamiyatini o'sishi, ayniqsa, ta'limiy va ilmiy xarakterdaligi kabilarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari qo'llanilmagan holdagi an'anaviy ta'lim tizimi quyidagi tasnifga ega edi: barcha ta'lim olishni xohlovchilar ta'limning imkoniyatlaridan to'liq bahramand bo'lishiga qodir emasligi; egallangan bilimning texnologiyalar rivojlanish darajasidan orqada qolish; ta'lim tizimining turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga nisbatan past moslanishi; muayyan o'quv muassasasida mavjud bo'lgan ta'limning o'ziga xosligi.

Mehnat ta'limi fanlarini o'qitish tizimini axborotlashtirish bu jarayonni sifatini oshirish; aholi bilimdonlik saviyasi oshishi va mamlakatning iqtisodiy potentsiali o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalanishini ta'minlash kabi muhim masalalarni hal qilishni ta'minlaydi. Bu masalalarning o'z vaqtida muvaffaqiyatli hal etilishi esa: a) faktologik bilimlarni mexanik tarzda o'zlashtirishdan yangi bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmasiga o'tishni ta'minlovchi psixologik-pedagogik ishlanmalarni amaliyotga keng joriy

etishga asos yaratadi; b) axborotlar (to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish) bilan ishlashning zamonaviy usullarini o'zlashtirishni ta'minlaydi; v) mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv-biluv faoliyatni intellektuallashtiradi.

Axborot texnologiyasi dasturli-apparatli imkoniyatga ega bo'lib, uni o'quv jarayoniga tatbiq qilish quyidagilarni ta'minlaydi: interaktiv rejimda ishlash; foydalanuvchi va axborot texnologiyasi o'rtasida sezilarli teskari aloqa o'rnatish; o'rganilayotgan jarayonni, shu jumladan, haqiqiy kechayotgan jarayonni aniq tassavur qilish (masalan, modul, grafik, diagramma, jadval va h.k ko'rinishda); turli xil ob'ektlar yoki haqiqiy kechayotgan jarayon yoki hodisa modelini kompyuter ekranida obrazli ko'rinishda tasvirlash va uni boshqarish; o'rganilayotgan ob'ekt va unda ro'y berayotgan hodisa yoki jarayon haqidagi ma'lumotlarni qayd etish, to'plash, saqlash va qayta ishlash; yetarli katta hajmdagi axborotlarni baza ko'rinishida saqlash va ulardan optimal foydalanish imkoniyatini ta'minlash; eksperiment natijalarini qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish.

Qayd etilganlar esa, o'z navbatida, axborot texnologiyasidan mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonida foydalanishning quyidagi pedagogik maqsadlarini aniqlash imkonini beradi:

- o'rgatuvchining ijodiy salmog'ini rivojlantirish;
- munosabat xatti-harakatlarga qobiliyatlilikni rivojlantirish;
- tajriba-sinov — tadqiqot faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quv-biluv faoliyat madaniyatini rivojlantirish;
- o'quv-tarbiya jarayoni barcha bo'g'inlarini sifat va samaradorligini oshirish;
- jamiyatni axborotlashtirish jarayonida paydo bo'ladigan sotsial buyurtmalarni (informatika sohasida mutaxassislar tayyorlash, axborot texnologiyasidan foydalanuvchi mutaxassislar tayyorlash kabi) tadqiq qilish.

Bu pedagogik maqsadlar esa, o'z navbatida, axborot texnologiyasini mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi:

- mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtiruvchi, uning sifat va samaradorligini oshiruvchi, o'rgatuvchi va bilimlarni tasvirlash vositasi sifatida foydalanish;
- mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv-biluv faoliyat madaniyatini shakllantirish maqsadida, ob'ektiv borliqni bilish vositasi sifatida foydalanish;
- eksperiment (laboratoriya va namoyish qiluvchi) natijalarini qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish va o'quv, namoyish qiluvchi jihozlarni boshqarish maqsadida foydalanish;
- mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv-tarbiya jarayoni, ta'lim muassasasi tizimini boshqarish maqsadida foydalanish;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish vositasi sifatida foydalanish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshi-rish hamda baholash katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat-ga ega. Bilim, kunikma va malakalarni tekshirish ikki shakl — frontal va individual tarzda utkazilishi bilan farqlanadi. Mehnat darslarida individual tekshirish uchun qulay sharoit vujudga keladi, chunki o'quvchilarning biri-dan so'rash boshqa o'quvchilarni ishdan chalgatmaydi. Fron-tal so'rash kamroq qullanadi va undan murakkab mehnat usu-lini, nazariy qoidani butun guruh qanchalik to'g'ri o'zlash-tirganligini tekshirish zarur bo'lib qolganda foydalani-ladi. Odatda tayyor buyumlarni baholashda frontal tekshi-rish qo'llaniladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish og'zaki, yozma va amaliy shaklda amalga oshiriladi.

Og'zaki tekshirish o'quvchilar bilimining saviyasi, pux-taliga va ongliligini aniqlash imkonini beradi.

Bilimlarni yozma tekshirish nisbatan kamroq, odatda o'quvchilar bilimini sinab ko'rish kerak bo'lganda, ya'ni o'kuvchilar berilgan mavzuni o'rganishga u yoki bu masala bo'yi-cha qanday bilimlar bilan kelganligini va bu bilimlar mavzuni o'rgangandan keyin qanday darajada to'lganligini aniqlash zarur bo'lganida qo'llanadi.

Bilimlarni amadda tekshirish mehnat ta'limida alohi-da o'rin tutadi, chunki mehnat darslarida o'quvchilar faoli-yati asosan ijtimoiy foydali buyumlarni tayyorlashdan iborat bo'ladi va shu yo'l bilan moddiy ifodasini topadi.

Keyingi yillarda o'quvchilar bilimini dasturlashtiril-gan nazorat qilish usulidan keng foydalanilmokda. Bunda so'rash vaqtini qisqartirish va hamma o'quvchilarni qamrab olish imkoniyati yuzaga keladi. Dasturlashtirilgan nazo-rat uchun karta — topshiriqlar bir necha variantda ishlab chiqiladi.

To'plangan tajribalarning ko'rsatishicha, bilimlarni dasturlashtirilgan nazorat qilishni qo'llash o'quvchilar faolligini, bilim saviyasini oshirishi va bilimlarni mustahkamlashni ta'minlashi aniqlangan.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish jarayoni quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yo'naltiril gan:

1. Bilim, ko'nikma va malakalar sifatini aniqlash. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati, eng avval ular-ning gguxtaligi va ongliligi bilan tavsiflanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o'zlashtirayotgan paytida emas, balki o'quvchilarning keyingi faoliyatida ham tekshirib borish kerak.

Shunday, qilib, butun ta'lim davomida o'quvchilar fao-liyati tizimli ravishda uzluksiz nazorat qilib boriladi. Mehnat darslarida, jumladan, gazlamaga ishlov berish yo'na-lishidagi mashg'ulotlarni amalga oshirish jarayonida shak-llantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar sifati ko'p jihatdan ularning yangi harakatlarni qanchalik qulay sha-roitlarda o'zlashtirishlariga

bog'liq bo'ladi. Masalan, o'quvchilar oldiga gazlamaga tikuv mashinasida ishlov berishga oid bilim va malakalardan foydalanib, tikuv mashinasi-ni ishga tushirmagan holda uni boshqarishni mustaqil ifodalashni topshirish mumkin. Politeknik ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, o'quvchilar bunday topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo'lishlari kerak.

2. Uquvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlarini ragbatlantirish. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish o'qituvchining o'quvchilarga yordam ko'rsatishi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qipadi. O'qituvchi tekshirish jarayonida o'quvchilarning ishlaridagi xatolarni ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, bu kamchiliklarni bartaraf etishga yordam bersagina bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga ular bajargan ish bosqichining umumiy tavsifini tushuntiradi, bunda u o'quvchilarda bajari-ladigan ishning bajarilgan ishlardan farqlari haqida — uning murakkablik darajasi yoki javobgarligi va hokazolarni haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Natijada o'qituvchilarni kelajakni ko'radilar va bu ularni safarbar qiladi, o'z ishlarini tashkil qilish, mehnat topshirigini sifatli bajarish ishtiyoqini uyg'otadi.

3. O'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishdagi nuqsonlarni aniqlashda yordam berish. Mehnat o'qituvchisi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirar ekan, ayni bir vaqtda u o'z ishining sifati haqida ham hukm chiqaradi. Agar o'quvchilar faoliyatida tipik xatolar uchrasa, bu hol aksariyat o'qituvchi ishida kamchilik mavjudligini ko'rsatadi. Aksincha, o'quvchilarning muvaffaqiyatli ishlari, mehnat usullarini to'g'ri bajarishi va hokazolar o'qituvchi o'quv materialini tushunarli bayon qilgan, degan xulosaga olib keladi.

4. O'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini tarkib toptirish. Mehnat ta'limi o'qituvchisi, ko'nikma va malakalarini tekshirishga o'quvchilarning o'zlarini ham jalb etadi. Chunonchi, gazlama bichimlari o'lchamlarining aniqligini tekshirishdan oldin o'qituvchi bu ishni faol uquvchilardan biriga topshiradi. Bunda o'quvchi o'lchov asbobi-ni to'g'ri ushlayotganligi, sanashni yo'riqnomaga asosan bajarayotganligini kuzatib turadi. Shundan so'ng, o'qituvchining o'zi belgilangan tartib asosida o'lchash jarayonini to'g'ri bajarish ketma-ketligini namoyish qiladi. Agar birinchi va ikkinchi o'lchashlar, ya'ni o'quvchilar va o'qituvchi bajargan o'lchash natijalari farq qilsa, o'qituvchi bu nimadan kelib chiqqanligini, qanday xatoga yo'l qo'yilganligini tushuntirib beradi. Natijada o'quvchilar ish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilib borish usullarini o'zlashtiradilar. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga har qanday faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilishlarining ahamiyatini tushuntiradi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish baholash bilan yakunlanadi. Mehnat mashg'ulotlarida baholash ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarida keng joriy etib borilayotgan reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. Baho mehnat jarayonining texnologiya nuqtai nazaridan yakunlangan bosqichlari uchun qo'yiladi.

6. Operatsiya (gazlamani rejalash, bichish va h.k.lar) ba'zi hollarda o'tish (choklarni bajarishda o'lchov asboblardan foydalanish) ana shunday bosqich hisoblanadi.

7. Ayrim operatsiyalarning bajarilishini, ularni o'rga-nish jarayonida baholash maqsadga muvofiqdir. Ravshanki, bunday holda buyumni yasash uchun umumiy belgilangan rey-ting bali alohida operatsiyalarni bajarish uchun qo'yilgan baholardan yig'iladi. O'quvchilar ilgari tanishgan opera-siyalarni o'z ichiga olgan kompleks ishlarini bajarishda ball bir yo'la tayyor buyumni tekshirish natijalari bo'yi-cha qo'yiladi.

Mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalansa, uning hozirgi zamon talablari darajasida talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganadi va ularda bilim, ko'nikma va malaka shakllanadi.

XULOSA

Respublikamiz xar soxada rivojlanib muayyan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Ayniqsa ta'lim borasida olib borilayotgan ishlar, uni rivojlantirishga qaratilgan ishlar bir zumga bo'lsada to'xtagani yo'q. Xozirda umumiy o'rta ta'lim, uni rivojlantirish davlat dasturi amlga oshrilmoqda. Bu o'z navbtida yoshlarimizni chuqur bilim olishiga imkoniyat va katta etibor degan. Bularning barchasi Muxtaram Prezidentimizning bizlarga qilayotgan otalarcha mexribonliklarining yaqqol namunasidair.

Umum ta'lim maktablarida ukuvchilarga puxta bilim berish uchun ta'limni tashkillashtirishni yangi usullaridan foydalanish bilan birga ukuvchilarni ta'limga bulgan kizikishlar ini xam oshirib borish talab etiladi. Bu borada o'qituvchilardan ta'lim soxasining zamonaviy yutuqlarini o'zlashtirib borishi talab etiladi. Xozirda yosh avlod tarbiyasiga aloxida etibor berish kerak ularning aqliy kamolotlarini va aqliy mexnatga qiziqtirish ishlarini izchil olib borish talaba etiladi. Bunday ishlar barcha o'qituvchilar zimmasiga yuklanadi. O'quvchilarni mexnat qilishga qiziqtirish ularni aqliy kmolotini rivojlantirishga yordam beradi. Xar bir yoshda aqliy mexnat qilishga nisbatan qiziqishni uyg'otish ular bilan shilash jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara bermoqda.

Demak, o'quvchilarni aqliy mexnat faoliyatini tashkil etish ishi xozirgi kunda ta'lim soxasining dolzarb maslalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda.

Oxrigi o'n yillikda yoshlarimizning mexnat qilishga va vatan rivoji uchun o'z xissamni qo'shamn degan xarakatini kuzatishimiz mumkin. Bu ishlar barchasi ana shu umumiy – o'rta ta'lim soxasida olib borilayotgan isloxotlarning natijasidir.

FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR

3. Karimov I.A. Uzbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosiy mafkura. 1-tom, T., «Uzbekiston», 1996, 44-bet.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. 3-tom. T., «Uzbekiston» , 1996, 6,7,178-bet.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-tom. T. «Uzbekiston» , 1997, 129-bet.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. 2-tom. «Uzbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. Uzbekiston XI asr busagasida: xvfsizlikka taxdid, barkarorlik ishlari va tarakkiyot kafolatlari. T. «Uzbekiston» 1997.
8. Karimov I.A.O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. T. «Uzbekiston»,
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.:O‘zbekiston,1999 y.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston- kelajagi boyuk davlat(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida sO‘zlagan nutqi. 1992 y. , 8-va 10-dekabr.-T.: O‘zbekiston, 1992 y. Uquvchi-ta’lim jarayoni sub’ekti. (1-maqola). Mahorat ko‘zgusi. 1999, 1-son. 10-14-6. (Hammualiflikda).
11. Uquvchi-ta’lim jarayoni sub’ekti. (2-maqola).Mahorat ko‘zgusi. 1999, 2-soi. 9-16-6. (Hammualiflikda).
12. O‘quvchi-ta’lim jarayoni sub’ekgi. (3 maqola}.Mahorat ko‘zgusi. 1999, 1-son. 20-28-6. (Hammualiflikda).
13. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish.Mahorat ko‘zgusi. 2000. 1-son. 11-15-6.
14. O‘quvchilarni o‘quv-biluv faoliyati.Mahorat ko‘zgusi, 2000, 5-6-son. 15-21-6.
15. Ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash. ta’lim. 2000, 6-son. 44-45-5.
16. Yangi pedagogik texnologiya nuqtai nazaridan ta’limni didaktik loyihalash. Pedagogik ta’lim. 2000, 3-son. 38-41-6.
17. Yo‘ldashev J. /. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim taraqqiyoti yo‘lida. T.: O‘qituvchi. 1994 y.
18. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari mavzusidagi seminar trening materiallari. T.: 2002 y.
19. Yo‘ldoshev J./. O‘smonov S.A. Pedagogik texnologiya asosolari: qo‘llanma- T.: O‘qituvchi. 2004 y. 104-b.

20. N. Saidahmedov. «Zamonaviylik , metodologiya, pedagogika» Xalq ta’limi. 1-son. 2004 y.
21. Babanskiy Yu.K. O‘quv tarbiya jarayonini optimallashtirish. M.: 1989 y.
22. Hamkorlik pedagogikasi namoyondalari. Xalq ta’limi. 1-son. 1992 y.
23. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. T.: O‘qituvchi. 2001 y.
24. Munavvarov A. Pedagogika. T.: O‘qituvchi. 1996 y.
25. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyotitarixi. - T.: O‘qituvchi. 1976 y. 142-b.
26. Yusupov E. Yoshlarning ma’naviy mexnati.- T.: O‘zbekiston. 1995 y.
27. «2004-2008 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi». – Ma’rifat, 2004 y., 21 fevral.
28. Sh. Jabborov. Erkinlashtirishning hayotbaxsh mevalari.-«Xalq so‘zi» 2003 y., 12 dekabr.
29. qodirov B. Ta’lim tizimidagi islohatlar: maqsad va yo‘nalishlari. – T.: O‘zbekiston. 1999 y.
30. O‘zbekiston Respublikasida masofaviy ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi (Loyiha). –«Xabar» 2004 y., 20 fevral.